

**TARIXIY SHAHARLARNING HUDUDLARIDA SAVDO OBYEKTLARINING
DIZAYN-KOD TAMOYILLARINI SHAKLLANTIRISH**

Abdulazizova M.B

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Toshkent, O'zbekiston

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОЕКТНО-КОДОВЫХ ПРИНЦИПОВ ОБЪЕКТОВ
ТОРГОВЛИ НА ТЕРРИТОРИЯХ ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДОВ**

Абдулазизова М.Б.

Ташкентский архитектурно-строительный университет, Ташкент, Узбекистан

**FORMATION OF DESIGN AND CODE PRINCIPLES OF COMMERCIAL
FACILITIES IN THE REGIONS OF HISTORICAL CITIES**

Abdulazizova M.B.

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Tashkent, Uzbekistan

Annotatsiya. Mazkur maqola tarixiy shaharlarning tumanlarida savdo obyektlarini dizayn-kod tamoyillari asosida shakllantirish bo'yicha qisqacha tushuncha, ularni amaliyotda tadbiiq etilishidagi foydali jihatlari va qulayliklarni o'z ichiga olgan.

Аннотация. Данная статья содержит краткое представление о формировании торговых объектов в районах исторических городов на основе принципов дизайна-кода, полезных аспектов и удобств их практического применения.

Abstract. This article included a brief understanding of the formation of commercial objects in the districts of historic cities on the basis of design code principles, useful aspects and facilities in their implementation in practice.

Kalit so'zlar: tarixiy shahar, dizayn-kod, statsionar, nostatsionar, reklama, visual shovqin

Ключевые слова: исторический город, дизайн-код, стационарный, нестационарный, рекламный, визуальный шум

Keywords: historical city, design-code, stationary, non-stationary, advertising, visual noise

Zamon talabi asnosida bugungi kundagi tarixiy shaharlarning ayni ko'inishi unda saqlangan obidalarni kelajak avlodga yetkazish eng asosiy masaladir. Mavzu yuzasidan tarixiy shaharlarning savdo obyektlarida dizayn kodlarning qonun-qoidalari, talab-tavsiyalari, ergonomik va jahon standartlari bo'yicha qo'llash prinsplari, ularning turlari, shu jumladan mahalliy xalqqa va sayyohlar gavjum bo'ladigan sotuv bo'limlarida ularni ranglar va ko'rinishlar psixologiyasi orqali jalb qilinishi ilmiy jihatdan yoritilgan. Aynan ushbu dizayn kodlarni tarixiy shahar savdo obyektlarida madaniy va etnik xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash tashrif buyuruvchilar va savdo ishlari uchun ko'plab qulayliklar yaratadi ularni oqimini oshirishda hizmat qiladi, shaharning muhitining sifatini yaxshilashga va eng asosiy tamoyillaridan biri, hozrda dolzarb yo'nalishlardan bo'lgan tanlangan markazning savdo-reklama faoliyatini rivojlantiradi.

Jahon miqyosida, xususan, yevropaning bir qancha shaharlari markazlarida shahar dizayni rivojlanishining ma'lum bir cho'qqisida ko'plab mavzuli tashqi mebel va jihozlar, vizual aloqa tizimlari bilan jihozlangan qulay piyodalar ko'chalari shakllandi. Bunday yirik predmet-fazoviy komplekslarni tashkil etishda qoida tariqasida, loyiha oldidan ishlab chiqilgan ularning tematik, kompozitsion-uslub va rang-barang tashkil etilishini belgilovchi yagona ssenariylar (dizayn-kod) amalga oshirildi. Shahar dizayn-kodida qo'llanilgan zamonaviy va o'z vaqti bilan uyg'un, ergonomik va qulay, mobil va oson almashtiriladigan shahar dizayni elementlari "ko'p qavatli" va hududiy o'sishning inson bilan bo'ladigan ziddiyatini oldini olishni ta'minlovchi inson va yangi yuksak binolar o'rtasida o'ziga xos bufer, keng ko'laml, funktsionallikni, badiiy-kompozitsiya va hokazolarni tashkil etdi.

O'zbekiston o'z me'morchilik jihatidan o'ta qadimiy va go'zal shahar. Ko'plab sayyohlar chet eldan tarixiy shaharlar qismini tomosha qilishga o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni batafsil o'rganish uchun tashrif buyuradilar.

Shu o'rinda aytish joizki dizayn kod prinsiplari hali O'zbekiston hududida talablar, qonun qoidalar jihatidan to'liq rivojlanmagan. Mijozlarning e'tiborini tortish yuzasidan turli tashkilotlar tomonidan tartibga solinmagan kombinatsiyasi noqulaylik keltirib chiqaruvchi belgilar, shakllar, ranglar bir so'z bilan aytganda visual shovqinlik keltirib chiqaruvchi reklamalardan foydalanilgan. Ammo bazida tashkilotlar ham mijozlarning hohish istaklarini va talablarini inobaga olgan holda bu ishni amalga oshiradilar natijada belgilangan funktsionallik yo'nalishlari qoidalari buzulishiga olib keladi.

Bu borada mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida hukumatimiz tomonidan O'zbekiston shaharlarining tarixiy markazlarini o'ziga jalb etuvchi estetik ko'rinishga ega bo'lgan arxitektura muhiti dizaynini ishlab chiqish va kichik me'moriy qurilmalar tizimini har bir hududning an'anaviy arxitektura, madaniyati va madaniy meros elementlari asosida ishlab chiqish ishlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Natijada ushbu soha vakillari zimmasiga yuklatilgan masuliyatli vazifalar o'z vaqtida bajarilishi va namoyish etilishi kabi talablarni o'ziga qamrab olgan turli xildagi loyihalar va davlatimiz rahbarining qarorlari e'lon qilinmoqda.

Mintaqamizdagi mavjud muammoni ilmiy asoslash va o'rganish yetarli emasdek tuyiladi, chunki O'zbekiston Respublikasida nafaqat tarixiy majmualar balki shahar markazi muhitini tartibga solish maqsadida dizayn koddan foydalanish kamdan kam hollarda uchraydi. Ohirgi yillar davomida zamon jadal rivojlanishi va ehtiyojlarni o'sishi va muammolarni bartaraf etish natijasidagina dizayn kodlarni amalda tatbiq etish tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qila boshladi. Hozirda O'zbekiston Respublikasida tarixiy tuman va shaharlari muhitini tartibga soluvchi me'yoriy, normativ-huquqiy bazasi va amaliyotda qo'llanish yo'riqnomalari o'rganilmoqda.

Buning namunasi sifatida, O'zbekiston Prezidentining 27.11.2020 yildagi 6119-son farmoni bilan, O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini olishimiz mumkin. Strategiyaga asosan, 2025 yilga borib O'zbekiston shaharlarining barchasini va shahar posyolkalarining 25 foizini bosh rejalar bilan qamrab olish belgilandi. Bosh rejalarini tasdiqlashda jamoatchilik fikri inobatga olinishi belgilab qo'yildi. 2022 yil 1 iyulgacha shahar muhiti elementlarining maqsadi, an'anaviy arxitektura va madaniyati, shuningdek, joyning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy «dizayn-kod» ishlab chiqilib, joriy etiladi [1].

Savdo obyektlarining tarixiy sayyohlik majmualarida joylashgani tashrif buyuruvchilarga qulaylik va xizmat ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bunday obyektlar kafelar, restoranlar, suvenirlar do'konlari, turistik asbob-uskunalar majmuasi va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin. Ular sayyohlar uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Biroq Samarqand, Xiva va boshqa tarixiy shaharlardagi tarixiy savdo markazlarining bugungi holati muammoli. So'ngi yillarda Samarqand shahridagi Siyob bozori va Toshkent

savdo ko'chalari bir necha bor qayta qurildi. Bozorlar atrofida turli tovarlar sotiladigan ko'plab do'konlar paydo bo'ldi, bozor hududida ikki qavatli ulkan supermarket, yo'l bo'yida uch qavatli savdo markazlari barpo etilib avvalgi muhitni tabiiyligi o'z holini asta sekinlik bilan yo'qotmoqda [2].

Toshkent qadimdan savdo va sotiq bilan shug'ullanadigan markaz sifatida tanilgan. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki qadimda Shosh shahrida ham katta-katta bozorlar rivojlangan. Shaharning Buyuk ipak yo'li ustida joylashgani uchun ham o'tmishda chet mamlakatlar bilan karvonlar orqali savdo ishlari olib borilgan. Samarqanddan, Buxorodan, Xitoy mamlakatidan turli xil mahsulotlar olib kelingan. Hozirda Toshkent shahrida 10 dan oshiq bozorlar mavjud. Dehqon bozorlari va buyum bozorlari sifatida ish olib borishadi. Toshkent shahrida tarixiy bozorlar juda ham ko'p hisoblanadi masalan :Chorsu bozori ,Eski-juva bozori 4-5 asrli tarixga ega [3].

Tarixiy savdo tumanlari va ularning ko'chalari tarixiy shahar markazlarining eng muhim elementlaridan biri bo'lib, ularni siyosatga tegishli muhtoj hududlarning birinchi qatoriga qo'yadi. An'anaviy bozorlar tarixiy shahardagi birinchi iqtisodiy faol joylardir. Bu fuqarolar sotib olish va sotish orqali o'z ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan joylar.

Hudud dizayn kodi bu shahar makonini qurish, loyihalash va rivojlantirish qonunlari va qoidalari. U esda qolarli soda va izchil shahar uslubini shakllantiradi, aholi va tashrif buyuruvchilar tomonidan shaharni idrok etishni osonlashtiradi, noyob muhit yaratadi. Dizayn kodi shaharning yagona qiyofasini yaratishga, tarixiy qimmatbaho ob'ektlarni saqlashga va vizual "shovqin"dan xalos bo'lishga yordam beradi. Dizayn kodini ishlab chiqish va amalga oshirish osongina tanib olinadigan va o'ziga xos shahar brendini yaratishga yordam beradi, shaharning rivojlanishiga turtki beradi, sayyohlik oqimini oshiradi, shahar va uning aholisining ijtimoiy kapitallashuvini o'stiradi [4].

Savdo obyektlarini xizmat ko'rsatish jihatidan ikkiga turga ajratamiz statsionar va nostatsionar savdo obyektlari.

Statsionar savdo obyekt - bu bino va inshoot yoki uning bir qismida joylashgan obyekt bo'lib, poydevori bilan mustahkam bog'langan, texnologik jihatdan muhandislik ta'minoti tarmoqlariga ulangan majmuadir.

Nostatsionar savdo obyekt - vaqtinchalik tuzilma obyekt bo'lib, yer uchastkasi bilan mustahkam bog'lanmagan, shu jumladan muhandislik tuzilmalari tarmoqlariga, texnologik jihatdan ulanmagan vaqtinchalik chakana savdo obyektlaridir. Ular bir qavatdan yuqori

bo'lmagan yerga mustahkam biriktirilmagan, makonni o'zgartirish natijasida konstruktiv xususiyatlariga mutanosib ravishda zarar yetkazmasdan va o'zgartirmasdan erkin harakatlanishi yoki demontaj qilinishi va keyinchalik yig'ilishiga imkon beradigan binolar va inshootlardir [5].

Shahar ahvolini, ko'rinishini himoya qilish va saqlash bo'yicha huquqiy, moliyaviy va ma'muriy choralarni amalga oshirish, shu jumladan meros zonalari va ularning shahar atrofini boshqarish bo'yicha qoidalar va talablarni belgilash, qonunbuzarliklar uchun jarimalar bilan qonunlarni qabul qilish va dizayn kodlar doirasida tijorat belgilarining dizayni va ranglari bo'yicha ko'rsatmalar berish orqali muammolar bartaraf etiladi. Bunga ko'ra:

- Savdo obyektlarida noqonuniy kasblarni olib tashlash orqali ko'cha sotuvchilari masalasini hal qilish shu bilan birga sotuvchilar uchun muqobil joylarni taqdim etish;

Quyidagi strategiyalar orqali ko'chaning vizual jozibasini yaxshilash;

- Dizayn jarayonida izchillikni saqlab, yaxlit ko'rinish yaratish uchun strukturaviy elementlardan foydalanish, bu birlik tuyg'usini kuchaytiradi va vizual ritmni o'rnatadi. Fuqarolarda daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish va hududning o'ziga xos xususiyati va shaxsiyatini ta'kidlash uchun tarixiy tumanning o'ziga xosligini ta'kidlaydi;

- Joyning o'ziga xosligini mustahkamlash uchun uning shahar xilma-xilligi va uyg'unligini namoyish etish, bu hududning ijtimoiy qadriyatlarini va fazoviy xususiyatlarini aks ettiruvchi dizayndagi bezakni saqlaydigan bannerlar va reklamalar orqali namoyish qilish;

- Faoliyat va odamlarning konsentratsiyasi natijasida atrof-muhit ifloslanishini yumshatish uchun savdo hududi ichidagi shahar hududlariga yashil maydonlarni qo'shish;

- Bir qator tadbirlarni taklif qiladigan va diqqatga sazovor joylarni o'rnatishga yordam beradigan turistik tijorat marshrutini yaratish;

eng ustivor vazifalar sirasiga kiradi va ko'rsatilgan rejaviy loyiha va qonun qoidalar asosida uni amalda tatbiq qilish kelajakda tarixiy makondan maksimal foydalanish imkoniyatini beradi [6].

Makon va millatning o'ziga xosligini aks ettiruvchi san'at va arxitekturani birlashtirish, bino yuzalarida ustunlik qiladigan reklama peshtoqlarining o'lchamlarini minimallashtirish va kunduzi va kechasi ta'sirchan ko'rinishlarini yaratish uchun yoritish elementlaridan foydalanish, ichki va tashqi makon o'zaro ta'siri bilan bog'liq bo'lgan birinchi qavatlar va kirish qismiga o'zgartirishlar kiritish dizayn kodning asosiy tamoyillaridir va hozrgi davrda

bunday yangilanishlarga barcha davlatlar qatori bizning diyorumizda ham ehtiyoj juda kata . O'zbekistonda aynan ushbu soha bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarur va bu ko'rsatmalar bilan ishlab chiqilgan ma'lumotlarni binolar yuzalarida, ko'chalarda, savdo obyektlarida va boshqa mavjud muammoli muhitlarda qo'llanilishi taklif etiladi [7].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.11.2020 yildagi PF-6119-son <https://lex.uz/uz/docs/-5130468>
2. <https://silkway.uz/news/science/bazary-istoricheskikh-gorodov-vostoka/>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_bozorlari
4. <https://mendelevsk.tatarstan.ru/istoriya-sozdanie-dizayn-koda.htm>
5. ДИЗАЙН-КОД существующей торговой линии и морской Центральной Набережной города Сочи. 2022
6. Alexandria Engineering Journal (2019) 58, 1127–1143
7. <http://conference.ioe.edu.np/publications/ioegc12/IOEGC-12-016-12029.pdf>